



TA'LIMDA MADANIYAT VA SAN'ATNING TUTGAN O'RNI

Muallif: X.A.Qulmatova ¹

Affilyatsiya: “University of economics and pedagogy” Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14511971>

ANNOTATSIYA

Maqolada musiqa va san'at maktablarida tahsil olayotgan yosh o'quvchilar ongiga musiqaning turli janrlari xususan yirik shakldagi asarlarni singdirishning ahamiyati yoritilgan

Kalit so'zlar: musiqa va san'at, estetik badiiy dunyoqarashi, musiqiy bilimlarni shakllantirish, madaniyat shakli, o'zbek musiqa san'ati.

San'at inson evolyutsiyasining eng muhim bosqichlaridan biridir. San'at odamga dunyoga turli nigoh, turli nuqtai nazardan qarashga yordam beradi. San'at hamisha odamlarga yashiringan qobiliyatlarini rivojlantirishga, mavhum fikrlashni yaxshilashga yordam bergan. Asrlar mobaynida odamlar san'atni tobora ko'proq o'zlashtirishga, uni takomillashtirishga, o'z bilimlarini chuqurlashtirishga harakat qilishdi. San'at – bu bizning tariximiz.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol, estetik badiiy dunyoqarashi shakllanib, madaniyatli insonlar qilib tariyalash bugungi kunda ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb va muxim masalalardan xisoblanadi.

Bugun xar bir yosh o'qigan romanisiz, yangi filmisiz, teatrdan premyerasiz, sevimli musiqiy guruhisiz, badiiy ko'rgazmalarsiz o'z hayotini tasavvur qila olmaydi. San'atda odam yangi fikrlar topadi, bilim, hayotiy savollarga javoblar va kundalik shovqin-suron va zavqlanishdan ishonch topa biladi. Haqiqiy san'at asari har doim kitobxonlar, tomoshabinlar, tinglovchilarning fikrlari bilan hamohang bo'ladi.

San'at – eng yuqori shakl estetik faoliyat. San'at asarlari bilan muloqot asosan estetik didni shakllantiradi. Zamonaviy dunyoda san'atning o'rni yuqori, chunki san'at – bu har bir shaxsning dunyoni estetik, ma'naviy egallash qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan madaniyat shakli, inson faoliyati natijasi va jarayonidir.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek folklor-havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib kelgan. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimiz bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko' tarildi.

Bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan uning murakkab sanalmish simfonik ijodiyoti alohida e'tiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xilma – xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob an'analarga, mumtoz namunalar xazinasiga ega sermahsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar tashkil etadi. Zero, har qanday andozada bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlar hamisha qadrlidir.

Yuksak kasb maxorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyiligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin.

30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli "Tanovar" poemasi, "Lola" syuitasi, Reyngold Glierning "Farg'ona bayrami" shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar orasida Mutal Burxonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun "Alisher Navoiyga qasida"si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushel, Sulaymon Yudakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirovning "Lirik Poema"si, Boris Nadejdinning "Bolalarga" syuitasi, Ikrom Akrabovning "Shoir xotirasiga" poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirxalil Maxmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafo Bafoyev, Rustam Abdullayev, Habibullo Rahimov, Bahrulla Lutfullayev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Zaminimizdagi musiqa san'atining rivoji uch ming yilga borib taqaladi.

Ma'lumki, musiqa sa'ati ajdodlarimiz ma'naviy hayotining mahsuli sifatida bizgacha yetib kelgan muhim meroslardan biridir. Aytish mumkinki, musiqa san'ati asrlar osha sayqal topib, milliy mumtozlik darajasiga ko'tarildi va bashariyat tomonidan e'tirof etildi. Shu bois sharq mutaffakirlari musiqa san'atining inson kamolotidagi ahamiyatiga katta e'tibor berdilar, ushbu sohada mahsus tadqiqotlar olib bordilar va insoniyat uchun o'lmas asarlar yozib qoldirdilar.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim olish hozirgi davrda yuqori baholanmoqda. Ya'ni musiqa san'ati yoshlarning estetik saviyasini oshiribgina qolmay, boladagi musiqiy qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga sababchi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Musiqa tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va axloqiy madaniyatni, musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarini yanada boyitish hamda ularda vatanparlik, insonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Ozbekitonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1998-yil 21- oktyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni faoliyatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari tog'risida" farmoni. Toshkent, 2009-yil.

A. Jabborov, S. Begmatov – "O'zbek musiqasi tarixi" Toshkent 2018

A. Fitrat 'O'zbeklar klassik musiqalarini tarixi', Toshkent, 1928 Umumta'lim maktablarining musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepiyasi.: Toshkent, XTV, 1995-yil.

Umumiy o'rta ta'limning musiqa fani bo'yicha DT va o'quv dasturi. (1-7-sahifalar)- Toshkent, Ta'lim taraqqiyoti, 5-7 sonlari, 1999-yil.

